



AHOLINI MUHOFAZA QILISHNING MUHANDISLIK VOSITALARI. HOZIRGI ZAMON OMMAVIY QIRG'IN QUOLLARIDAN HIMOYALANISH

Shaymardanov Hamza Xolmo'minovich

"Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyi Chaqiruvga qadar boshlangich tayyorgarlik fani oqituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6545337>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-may 2022

Ma'qullandi: 10- may 2022

Chop etildi: 14- may 2022

KALIT SO'ZLAR

Radiatsiya, RSB (radiatsiyadan saqlovchi boshpana), kanalizatsiya, yadroviy qurollar, kimyoviy qurollar, nurli qurollar, qirg'in qurollari.

Aholini radiatsiyadan muhofazalash maqsadida turli xildagi inshootlar mavjud. Muhofaza inshootlari aholini muhofazalovchi ishonchli vositadir. Bu inshootlar aholini turli tusdagi favqulodda vaziyatlardan hamda ommaviy qirg'in qurollarining ta'sir etish omillaridan saqlaydigan boshpana hisoblanadi. Muhofazalovchi inshootlar muhofazalash xususiyatiga ko'ra, pana va radiatsiyaga qarshi pana joylarga bo'linadi. Shunday inshootlar quyidagi xususiyatlardan kelib chiqqan holda:

- yo'nalishga ko'ra — fuqarolarni saqlashga, boshqaruv tizimlarini joylashtirishga mo'ljallangan;
- joylashgan o'rniga ko'ra — alohida joylashgan (metropolitanlar va tog'-kon qurilishlari);
- qurilish muddatiga ko'ra — boshpana RSB (radiatsiyadan saqlovchi boshpana) va oddiy boshpanalar quriladi.

ANNOTATSIYA

Aholini muhofaza qilish eng ustuvor vazifalarda biridir. Ushbu maqolada aholini muhofaza qilishning muhandislik vositalari hamda hozirgi zamon ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalash usullari haqida ma'lumotlar beriladi.

Pana joylar (убежище) — bu maxsus inshoot bo'lib, u yashiringan odamlarni yadroviy portlashdan, zaharlovchi moddalardan, bakterial vositalardan, shuningdek, yuqori harorat, yong'in paytida zaharh gazlardan muhofaza qiladi. Boshpanalar odamlarni qabul qilish soniga qarab, besh guruhga bolinadi. Kichik hajmdagi boshpana 150—300 kishigacha, o'rtacha 360—600, katta 600 dan ko'p odamni qabul qiladi. Pana joylar asosiy va yordamchi binolardan iborat bo'ladi. Asosiy binoda yashirinuvchilarni joylashtirish joyi va ikki yoki uch qavatli bo'ladi. Ikkinchi yordamchi binoda sanitariya tarmog'i, havoni tozalab almashtirib beruvchi kamera va sig'imi katta inshootlarda tibbiyot xonasi, oziq-ovqat saqlanadigan ombor, artezian quduq va dizelli elektrostansiya uchun xona mavjud

Pana joyning energiya, suv isitish, kanalizatsiya tarmoqlari tashqi tarmoqqa



ulangan. Ular shikastlanganda pana joylarda ko'chirma elektr fonarlar, suv zaxiralari, chiqindilar uchun idishlar bilan ta'minlangan. Bulardan tashqari, tekshirish va nazorat qilish majmuyi, muhofaza kiyimlari, yong'inni o'chiruvchi tayyor holatda saqlanadi. Turli radiatsiya va boshqa shu kabi ofatlardan aholini himoya qilish uchun mavjud inshoot — boshpanalar qurilishda quyidagi talablar qo'yiladi:

- 1) uch sutkadan kam bo'lmagan muddatda saqlash;
- 2) suv bosmaydigan joylarga qurish;
- 3) oqar suvlardan, kanalizatsiya kommunikatsiyalaridan hamda qurilish kommunikatsiyalaridan uzoqroq joylarda qurish;

4) chiqish va kirish eshiklari bo'lishi
Favqulodda vaziyatlarda xabar berishning yagona tizimi. Respublika, viloyat, shahar aloqa tizimi asosini boshqaruv punktlarining aloqa tarmoqlari tashkil etadi. Boshqaruv punktlarining aloqa tarmog'i bu boshqarishni taminlash uchun ishlatilgan aloqa kuchlari va vositalarining tashkiliy-texnik birlashmasidir. Fuqaro muhofazasi tizimida televideniye, radio, radiorele, uyali aloqavositlari, simli va signal beruvchi aloqa vositalari ishlatiladi. Favqulodda vaziyat sodir bo'lgan joydan olingan xabarda kim xabar berayotgani, qaysi hududdan xabar berilayotgani, ayni paytdagi holat, yana qanday xavf sodir bo'lishi mumkinligi, qanday chora-tadbirlar o'tkazilgani va yordam berish turi aniqlashtiriladi. Agar xabar sirena orqali berilsa, aholi sirenani eshitib, reja bo'yicha harakatlana boshlaydi.

Xabar berish tizimi lokal va markazlashgan bo'ladi. Ommaviy qirg'm qurollari XX asrga kelib, juda ko'p va turlituman nomlarda ishlab chiqarila boshlandi. Bunday qirg'ln qurollariga yadroviy, kimyoviy, biologik, nurli va boshqa qurollar kiradi. Ushbu qurollarning qirg'in qurollari, deb atalishiga sabab — juda katta miqyosda vayronagarchilik va yo'q qilish kuchiga ega bo'lganida.

- Yadroviy qurollar — tirik organizmni, jamiki inshootlar, texnikalarni qattiq shikastlaydi.

- Kimyoviy qurollar — ular ta'sir etgan jamiki mavjudotlar, narsalami zaharlab, oldingi holatiga qaytarib bo'lmaydigan darajaga tushirib qo'yadi.

- Biologik qurollar — bunday qurollar tirik mavjudotlarga kuchli kasallik tarqatish usuliga asoslanadi.

- Nurli qurollar — bu qurollarning ta'sir etish xususiyati termomexanik ta'sirga asoslangan. Ya'ni, nurlar dastasining obyektga yo'naltirilishi. Bunda obyekt (tank, texnika va h.k.) suyulib ketadi.

Yadro qurolini dastlab 1945-yil 6 va 7-avgustda AQSH Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlariga tashladi. Atom bombasi portlashi natijasida 313 mingdan ortiq odam halok bo'ldi, 238 ming kishi shikastlandi. Shikastlashning eng qudratli vositasi bo'lgan yadro quroli portlash yo'li bilan ta'sir etadigan qurol bo'lib, yadrolarning parchalanishidan ajralib chiqadigan energiyadan foydalanishga asoslangan.

Shikastlashning eng qudratli vositasi bo'lgan yadro quroli portlash yo'li bilan ta'sir etadigan qurol bo'lib, yadrolarning parchalanishidan ajralib chiqadigan energiyadan foydalanishga asoslangan. Shikastlash usullarini Qo'llash ballistik raketalaridan, bombardimonchi



samolyotlar (yadro quroli tashuvchi) va artileriyadan, yadro zaryadli raketalar bilan qurollangan kemalardan foydalanish orqali amalga oshirish mumkin.

Yadro quollarini havoda har xil balandlikda portlatish (havoda portlash), yer yuzi yaqinida portlatish (yer ustida portlash), yer ostida portlatish (yerosti portlash), suv ustida portlatish (suv ustida portlash) mumkin. Yer yuzining qaysi nuqtasi tepasida portlatilgan bo'Msa, shu nuqta portlash epitsentri (markazi), deb ataladi (6-rasm). Yadro quroli portlaganda, hatto havo ochiq kunda ham osmonni va bir necha o'n kilometr atrofidagi joylarni yoritib turadigan darajada ravshan chaqnash paydo bo'ladi, momaqaldiroqqa o'xshash, quloqni kar qilarli darajada qattiq tovush chiqadi. Bu tovush bir necha o'n kilometr uzoqlikdan ham eshitiladi. Agar yadro quroli havoda portlatilgan bo'Msa, chaqnash paydo bo'lgandan keyinroq olov shar (agar yerda portlatilgan bo'lsa, yarim shar) paydo bo'ladi. Olov shar tez kattalashib, yuqoriga ko'tariladi va sovib, qo'ziqorin shakliga o'xshab ketadigan, burqirab turgan bulutga aylanadi

Yadro quroli portlaganda, shikast yetkazuvchi besh omil: zarb to'liqini, yorug'lik nurlanishi, singuvchi radiatsiya va radioaktiv zaharlanish, elektr magnit impulsi omillari ta'sir etadi. Yadro qurolining energiyasi taxminan quyidagicha taqsimlanadi: 50 % energiya zarb tolqiniga, 35 % energiya yorug'lik nurlanishiga, 10 % radioaktiv zaharlashga va 5 % energiya singuvchi radiatsiyadan iborat. Zarb to'liqini — portlash markazidan har tomonga katta tezlik bilan tarqaluvchi kuchli darajada siqilgan havo yo'nalishidan iborat. Masalan, quvvati 1 megatonna bo'lgan yadro quroli portlaganda zarb to'liqini 0,5 sekund ichida 1000 m masofani, 9 sekund ichida 5000 m masofani, 22 sekund ichida esa, 10000 m masofani egallaydi. Zarba to'liqinidan shikastlanish to'it darajaga bo'linadi: Zarb to'liqini himoyalannmagan kishilarni shikastlaydi, binobarin, texnika va ishlab chiqarish asbob-uskunalarini vayron qiladi yoki shikastlaydi. Odamlar buzilgan binolar hamda inshootlarning parchalaridan, otilib chiqayotgan tosh, shisha bo'laklari va boshqalardan ham jabrlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent, 2008 yil
2. O'zbekiston Respublikasining "Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuni, Toshkent, 2002 yil
3. O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida"gi qonuni
4. O'zbekiston Respublikasi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun "CHaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fani o'quv dasturi. 2015 y.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrda "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish bo'yicha milliy maqsadlar va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 841-sonli qarori //https://lex.uz
6. Tsui A., Gutek B. A role set analysis of gender differences in performance, affective relationships and career success of industrial middle managers // Academy of management journal. 1984. Vol. 27. N 3. P. 619-635.
7. Бендас Т.В. Гендерные исследования лидерства //Вопросы психологии. 2000. N 1. С. 87-95.



8. Eagly A.H., Karan S.J., Makhijani M.G. Gender and effectiveness of leaders: a meta-analysis
// Psychological bulletin. 1995. Vol. 117. N 1. P. 125-145.
9. Women's Power Index // <https://world.org>